BITKOINNING PAYDO BO‘LISHI, ENG KICHIK BIRLIGI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI. NARXLAR O‘ZGARISH DINAMIKASI.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To‘rtko‘l fakulteti katta o‘qituvchisi

Turdiyeva Yoqutjon Xayitbayevna

Soliq va soliqqa tortish yo‘nalishi

3-kurs bakalavriyat talabasi

Muhamedov Muzaffarjon Axrorjon o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada bitkoinning kelib chiqishi, ishlash tamoyillari va zamonaviy moliyaviy tizimdagi o‘rni, asosiy xususiyatlari, eng kichik birligi satoshi ekanligi, shaffoflik, xavfsizlik va o‘zgartirib bo‘lmaslik kabi jihatlar bayon etiladi. Shuningdek, uning narx o‘zgarish dinamikasi, global moliya bozoridagi ahamiyati haqida umumiy ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: bitkoin, kriptovalyuta, Satoshi Nakamoto, raqamli valyuta, markazlashmagan tizim, kriptografiya, investitsiya.

Pul insoniyat tarixining ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Ularning uzoq rivojlanish tarixi natijasida ko‘plab pul tizimlari shakllandi va ular hozirgi vaqtda iqtisodiyot hamda umuman davlatlarning ajralmas qismiga aylandi, chunki mamlakatlarning iqtisodiy farovonligi bevosita savdo va hisob-kitoblar bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, dunyo shiddat bilan deyarli cheksiz muloqot imkoniyatlariga ega global axborot makoniga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internetning paydo bo‘lishi, virtual pullarning har xil turlaridan foydalangan holda elektron tijoratning doimiy va to‘xtovsiz o‘sishi iqtisodiy voqelikning o‘zgarishiga asosiy sabab bo‘ldi.

Shunday pullardan biri bitkoin — bu raqamli valyuta yoki "kriptovalyuta" bo‘lib, u bank tizimidan mustaqil ravishda odamlar o‘rtasida tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bitkoin (ingl. Bitcoin, bit — «bit» va coin — «tanga» so'zlaridan) — bu operatsiyalarni hisobga olish uchun xuddi shu nomdagi birlikdan va ma'lumot uzatish uchun xuddi shu nomdagi protokoldan foydalanadigan piring to'lov tizimidir. Tizimning ishlashi va himoyasini ta'minlash uchun kriptografik usullardan foydalaniladi. Tizim manzillari o'rtasidagi tranzaksiyalar haqidagi barcha ma'lumotlar ochiq holda mavjud.

Minimal uzatiladigan qiymat (eng kichik bo'linish miqdori) — 10 -8 bitkoin — asoschi Satosi Nakamoto sharafiga «satoshi» deb nomlangan, garchi uning o'zi bunday hollarda «sent» so'zini ishlatgan bo'lsa ham.

Ikki tomon o'rtasidagi elektron to'lov vositachilarsiz amalga oshiriladi va ortga qaytarilmaydi — tasdiqlangan operatsiyani bekor qilish mexanizmi mavjud emas (shu jumladan, to'lov noto'g'ri yoki mavjud bo'lmagan manzilga yuborilgan yoki tranzaksiya boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolgan maxfiy kalit bilan imzolangan holatlar ham). Mablag'larni yopiq kalit egasidan (yoki u ma'lum bo'lib qolgan shaxsdan) tashqari hech kim, hatto vaqtincha ham bloklay olmaydi (hibsga ololmaydi). Ammo ko'zda tutilgan ko'p imzolash texnologiyasi uchinchi tomonni (arbitrni) jalb qilish va «qaytariladigan tranzaksiyalarni» amalga oshirish imkonini beradi.

Markazlashtirilmagan raqamli valyutani yaratish konsepsiyasi va barcha nazariy jihatlarini ishlab chiqish uchun qancha vaqt ketganini aniq aytish qiyin. Shuning uchun bitkoin tarixi 2008-yildan boshlangan deb hisoblanadi, o'shanda internetda Satosi Nakamoto (Satoshi Nakamoto) nomi bilan e'lon qilingan kriptovalyuta tavsifi tushirilgan hujjat paydo bo'lgan. Ushbu taxallusi ortida kim yashiringani, u bir muallifmi yoki ishlab chiquvchilar guruhimi — hali ham noma'lumligicha qolmoqda. Bitkoin tarmoqning ishga tushishi 2009-yil 3-yanvarda bo‘lgan. Satoshi Nakamoto Bitkoin tarmog‘idagi birinchi blokni (Genesis Block) yaratadi. Shu bilan tizim amalda ishlay boshlaydi.

Bitkoinga sarmoya kiritishning ikkita asosiy strategiyasi mavjud:

- Pozitsion strategiya yoki o‘sish strategiyasi. Hammasi juda oddiy. Investor kriptovalyutani real pul miqdoriga sotib oladi va kurs ko‘tarilishini kutadi. Erta-kechmi uning qiymati oshadi va sotib olingan valyutani ko‘p barobar qimmatroqqa sotish mumkin bo‘ladi.

- Birjada savdo qilish. Bu yerda investorning bitta ustunligi bor. Ma’lumki, Rossiyada ushbu kriptovalyuta unchalik ommalashmagan, shuning uchun ham hamma savdo asoslarini bilavermaydi. Muvaffaqiyatga erishish uchun investor o‘z raqobatchilaridan bir bosh baland bo‘lishi kifoya.

Kriptovalyutaning an’anaviy pullardan asosiy farqi shundaki, u faqat virtual dunyoda mavjud. Mohiyatiga ko‘ra, bitkoin — bu ko‘rinmas valyuta. Uni ushlab ko‘rib bo‘lmaydi, u tarmoqdagi aniq bir manzildagi yagona reestrda hisobi yuritiladigan yozuv ko‘rinishida mavjud bo‘ladi.

Ko‘plab afzalliklariga qaramay, bitkoin kriptovalyutasi sezilarli kamchiliklarga ham ega. Valyuta barqarorligini ta’minlash muhim muammolardan biridir. Bitkoin bu borada beqaror bo‘lib, tez o‘zgaruvchan dinamika va kursga ega. Jamg‘armalarni ma’lum bir valyutada saqlash uchun insonga vaqt o‘tishi bilan uning sarmoyalari qadri tushib ketmasligi yoki butunlay qadrsizlanib qolmasligiga ishonch kerak. Ya’ni, boshqa valyutalarga nisbatan yetarli darajada barqaror valyuta kursi zarur. An’anaviy pullar bu jihatdan kriptovalyutalarga qaraganda barqarorroqdir. Ularning sezilarli bo‘lmagan tebranishlari jamg‘armalarni o‘rtacha muddatlarda katta yo‘qotishlarsiz saqlash imkonini beradi.

Bitkoin narxi kursida juda katta o‘zgaruvchanlik mavjud. Bitkoin va boshqa kriptovalyutalar uzoq muddatli investitsiyalar uchun emas, balki ko‘proq spekulyatsiyalar uchun mos keladi, jamg‘arma saqlash uchun esa hozirgi vaqtda ular umuman to‘g‘ri kelmaydi.

Bitkoinning Asosiy Jihatlari:

•Markazlashmagan (Decentralized): Banklar yoki hukumatlar nazorati ostida emas.

•Cheklangan miqdorda: Maksimal 21 millionta bitkoin mavjud bo‘lishi mumkin.

•Shafoflik va xavfsizlik: Barcha tranzaksiyalar ochiq blokcheyn daftarida qayd etiladi.

•O‘zgarmaslik: Tasdiqlangan tranzaksiyalarni bekor qilib bo‘lmaydi.

Narxlar o‘zgarish dinamikasi:

Bitkoin boshida hech qanday qiymatga ega emas edi. 2010-yil 22-mayda amerikalik Laslo Xanich (Laszlo Hanyecz) 10 000 bitkoin evaziga 2 ta pitsa sotib oldi. Bu kriptovalyutaning real mahsulotga almashilgan ilk holati sifatida tarixga kirdi. O‘shanda bu bitkoinlar taxminan 41 dollarga teng bo‘lgan. Bitkoin narxi qisqa muddatda keskin tushishi yoki ko‘tarilishi mumkin. 2024-yil oxir va 2025-yil boshida AQSh saylovlari va bozor talabi ortish bilan narx $100 000 dan oshdi. Hozirda bozor to‘yinishi yoki salbiy xabarlar natijasida taxminan 50% dan ortiqqa pasayish holatlari kuzatilgan. Hozirgi kunda 1 bitkoin narxi $74 397.20 miqdorda bo‘lib turibdi. Bitkoin o‘zining barcha ijobiy va salbiy tomonlari bilan qiziqarli to‘lov tizimidir. Bitkoinni, mohiyatiga ko‘ra, platforma deb atab ham bo‘lmaydi. Bu tayyor mahsulot, valyuta bo‘lib, uni kengaytirish imkoniyati yo‘q. Bitkoining eng kichik v abo‘linmas birligi Satoshi deb ataladi. U tizim asoschisi Satoshi Nakamoto sharafiga shunday nomlangan.

•1 Satoshi = 0.00000001 BTC(Bitkoin)

•Boshqacha aytganda, 1 Bitkoin 100 milion satoshidan iborat.

Bu bo‘linish bitkoinning juda kichik miqdorlari bilan ham hisob-kitob qilish imkonini beradi. Masalan, hozirgi kurs bo‘yicha (2026-yil aprel holatiga ko‘ra 1 BTC= 900 million so‘m atrofida bo‘lsa), 1 satoshi taxminan 9-10 so‘mga teng bo‘ladi.

Yuqoridagilarning barchasini sarhisob qilib, shunday xulosa qilish mumkinki, bitkoin moliya bozorida mustahkam o‘rin egalladi va iqtisodiyot olamida inqilob qildi. Bugungi

kunda kriptovalyuta bozori eng talabgir investitsiya bozorlaridan biri hisoblanadi. Strategiyani to‘g‘ri yuritish uchun maxsus bilim va ko‘nikmalar talab etiladi. Ko‘pgina davlatlar ushbu kriptovalyutaga uning tartibga solinmasligi va beqarorligi sababli salbiy munosabatda. Biroq, so‘nggi yillardagi bitkoin rivojlanish dinamikasini o‘rganib chiqib, uning kelgusidagi rivojlanishi ta’minlangan deb aytish mumkin. Bitkoin raqamli iqtisodiyotda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqargan birinchi raqamli valyutadir. Bitkoin kelajakda moliya tizimlarini qanday o'zgartirishi mumkinligi haqida ko'plab bahslar davom etmoqda, bu esa uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://oko-planet.su/finances/financescrisis/223319-vozmozh-nosti-i-riski-ispolzovaniya-bitkoin-v-rossii.html
2. Dustova M. Coins to cryptos: tracing the threads of economic transformation//Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023.
3. Bloxina T.K., Nazarenko O.V., Niyazbekova Sh.U. Global moliyaviy arxitektura: kontseptsiya, mohiyat, muammolar // Sudan Rossiya Federal Universitetining Axborotnomasi. 2017.
4. https://ru.insider.pro/topnews/2017-06-01/nabiullina-cb-ne-schitaet-bitkoin-cifrovoj-valyutoj/